

"O'zbekkino" Milliy agentligi buyurtmasiga asosan 2016 yil sentabr holati bo'yicha suratga olingan badiiy va hujjatli filmlar haqida axborot

Agentlik buyurtmasiga asosan ishlab chiqarilgan «**Baron**», «**Xazonrezgi**», «**Oyqiz ertagi**», «**Toliqqan ko'ngillar oyga talpinar**» (S.Nazarmuhamedov), «**Zurriyot**» (A.Mignarov) nomli badiiy filmlar hamda "**No'xotpolvon**" multfilmning 1-3-qismlari, «**Qari bilganini pari bilmas**», «**Bo'ynoq**», «**Rustam va Said**» (1-qism) multfilmlari qabul qilinib, namoyishga ruxsat berildi.

Filmlar ishlab chiqarish rejasi asosida «**Ma'suma**» (Y.To'ychiyev), "**Muqaddas istak**" (H.Nasimov), «**Somon yo'li**» (Z.Musoqov), «**Isnod**» (R.Muhammadjonov), «**O'qilmagan xat**» (M.Mardonov) nomli badiiy filmlarni suratga olish ishlari davom etmoqda. «**Rishta**» (M.Oxunov) hamda «**So'nggi pushaymon**» (N.To'laxo'jayev) nomli badiiy filmlarning suratga olish ishlariga tayyorgarlik ketmoqda.

Shuningdek, YoTIU "5-studiya" sida «**Zumrasha**» bolalar yumoristik kinojurnalining 4ta to'plami yakunlandi. 5-6-7-to'plamlari ishlab chiqarish jarayonida.

O'zbekkino" Milliy agentligi buyurtmasi bo'yicha 2016 yil 9 oylik holatiga ko'ra ishlab chiqarilgan va suratga olish jarayonidagi hujjatli filmlar haqida ma'lumot

O'zbekkino" Milliy agentligi "Filmlar va boshqa kinomahsulotlarni tematik rejalashtirish, ssenariylar portfelini shakllantirish va tahlil qilish xizmati" bo'limida 2016 yilning 9 oylik holatiga ko'ra umumiy hisobda **26 ta** hujjatli film ishlab chiqarishga tushirdi. Shulardan **16 ta** film qabul qilinib, qolgan **10 tasi** ishlab chiqarish jarayonida.

Jumladan, «**Shahrisabz – qadimiy, betakror, navqiron**», «**Adabiyot sarmanzillari**», «**Jampiq qal'a**», «**Adabiyot sarchashmasi**», «**Ohanglarda yashayman hamon...**», «**Biz – buyuk yurt farzandlarimiz!**», «**Osuda hayot qadri**», «**Qadriyatlar maskani**», «**Elning suyanganlari**», «**Mo'jizakor iste'dod**», «**Mehrdan yaralgan mo'jiza**» («**Iroda**»), «**Mustahkam rishtalar**», «**Sog'lom kelajak**», «**Maktub**», «**Asr qurilishi**», «**Qalbi daryo inson**» kabi hujjatli filmlar suratga olinib, Badiiy kengash Qarori asosida qabul qilindi.

Hozirda «**O'zbekistonda bag'rikenglik madaniyati**» («**O'zbekiston 25 yil ichida**») «**Yosh hunarmandlar**», «**O'zbekiston. Yuksalish bosqichlari**» kabi hujjatli filmlar Badiiy kengash muhokamasiga taqdim etilish arafasida.

«**Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi**», «**Hakim at- Termiziy**», «**Guliston bo'stonga aylanmoqda**», «**Vaziyat**», «**Men– shu yurt fuqarosiman**», «**Qalb amri**», «**Ikroma Boltayeva**» («**Qashqadaryolik Dezdemon**») kabi hujjatli filmlar esa suratga olish jarayonida.